



Dastlabki ma'lumotlar

2024- yilning yanvar-mart oylarida Navoiy viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 2 354,1 mlrd. so'mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 104,3 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar 2 198,9 mlrd. so'mni (104,4 %), o'rmon xo'jaligi – 127,8 mlrd. so'mni (102,9 %), baliqchilik xo'jaligi – 27,4 mlrd. so'mni (104,5 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Navoiy viloyatining ulushi 5,2 % ni tashkil etdi.



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o'sish sur'ati




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi, (% da).



2024- yilning yanvar- mart yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 93,4 % i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar, 5,4 % i – o'rmon xo'jaligi, 1,2 % i – baliqchilik xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi (mlrd.so'm)



2024- yilning yanvar- mart oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Xatirchi (626,1 mlrd. so'm), Qiziltepa (430,5mlrd. so'm) va Navbahor (334,8 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Navoiy shahar (17,7 mlrd. so'm), Zarafshon (19,9 mlrd. so'm), G'ozg'on shahar (25,7 mlrd. so'm) larini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'ati Navoiy shahar (125,7 %), Karmana (110,7 %), Konimex (107,7 %), Tomdi (105,6 %), Nurota (104,5 %), Qiziltepa (103,2 %), Xatirchi (102,8 %), Navbahor (101,9 %), aksincha Zarafshon shahar (101,7 %) G'ozg'on shahar (101,6 %), Uchquduq tumanlarda esa (101,0 %), past sur'atlar kuzatildi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati, (%) da




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2024- yilning yanvar- mart oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 2 168,1 mlrd. so'mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 104,4 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 92,8 mlrd. so'mni (115,7 %), chorvachilik mahsulotlari 2 075,3 mlrd.so'm ni (103,9 %) tashkil qildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



**Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari
hajmining tumanlar kesimida taqsimlanishi (%) da**




**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida
dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi**



Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiyligi hajmining 81,4 % i – dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 9,8 % i – fermer xo‘jaliklariga, 8,8 % i – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tumanlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%) da




2024-yilning yanvar- mart oylari yakuniga ko'ra yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Tomdi tumanida (22,2 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Zarafshon shahri (95,7 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Navoiy shahrida (68,7 %) qayd etildi.

Dehqonchilik


2024- yilning yanvar- mart oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 92,8 mlrd. so'mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 115,7 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 4,3 % ni tashkil qildi.

Sabzavotlar


Hajmi, tonna.



O'sish sur'ati



**Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


**Qishloq xo'jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 3948 tonna sabzavotlar (2023- yilning yanvar- martiga nisbatan 24,7 % ga ko'p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiyligi hajmidan 77,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Navoiy viloyati bo'yicha
sabzavotlar yetishtirish
hajmi, tonna**



2024- yilning yanvar- mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 2 075,3 mlrd. soʻmni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 103,9 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xoʼjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 95,7 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʼrsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining koʼpayishiga, ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan toʼldirishga imkon yaratdi.




2024- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xoʼjaliklar tomonidan tirik vaznda 31,2 ming tonna goʼsht (2023- yilning yanvar-martiga nisbatan 3,1 % ga koʼp), 87,8 ming tonna sut (3,5 % ga koʼp),


89,0 mln. dona tuxum (115,2 % ga ko'p) yetishtirildi va 1,4 ming tonna baliq (4,2 % ga ko'p) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming tonna.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 31,2 ming tonna go'sht (2023- yilning yanvar-martiga nisbatan 3,1 % ga ko'p) yetishtirildi. Go'sht yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht yetishtirish umumiy hajmidan 83,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




**Navoiy viloyati bo'yicha
go'sht (tirik vaznda)
yetishtirish hajmi, tonna**




Sut


Hajmi, ming tonna.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 87,8 ming tonna sut (2023- yilning yanvar- martiga nisbatan 3,5 % ga ko'p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiyligi hajmidan 89,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Navoiy viloyati bo'yicha
sut yetishtirish
hajmi, tonna**




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



**Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 89,0 mln. dona tuxum (2023- yilning yanvar- martiga nisbatan 15,2 % ga ko'p) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiylajmidan 54,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




**Navoiy viloyati bo'yicha
tuxum yetishtirish
hajmi, ming dona**




Baliq ovlash


Hajmi, tonna.



O'sish sur'ati




**Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2024- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1350,0 tonna (2023- yilning yanvar- martiga nisbatan 4,2 % ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalaribo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiyligi hajmidan 62,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



Navoiy viloyati bo'yicha
ovlangan **baliq**
hajmi, tonna



Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 8,9 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 88,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiyligini sonidan 27,6 % i fermer xo'jaliklariga, 57,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 15,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi shuningdek, parrandalar umumiyligini sonidan 11,9 % i fermer xo'jaliklariga, 55,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 32,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.


2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollarning umumiyl bosh soni 536,4 ming taga yetdi. 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 10,8 ming taga (2,1 %) ko'paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 88,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




**Navoiy viloyati
bo'yicha yirik shoxli
qoramollarning umumiy
bosh soni, ming bosh**




2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 214,3 ming taga yetdi. 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni (2,2 %) ga ko'paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 90,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




Navoiy viloyati
bo'yicha **sigirlarning**
umumi bosh soni,
ming bosh




2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 2 443,2 ming taga yetdi. 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilar bosh soni 48,7 ming taga (2,0 %) ko'paydi.

Qo'y va echkilar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati




Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami qo'y va echkilarning 57,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




Navoiy viloyati bo'yicha
qo'y va echkilarning
umumiyl bosh soni,
ming bosh




2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, otlarning umumiy bosh soni 22 063 taga yetdi. 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni 940 taga (4,5 %) ko'paydi.

Otlar


Soni, bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami otlarning 49,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




Navoiy viloyati
bo'yicha otlarning
umumiyl bosh soni, bosh




2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, parrandalarning umumiyl bosh soni 3 755,4 ming taga yetdi. 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni 172,5 ming taga (4,8 %) ko'paydi.

Parrandalar



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 55,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



Navoiy viloyati
bo'yicha
parrandalarning
umumi**y**bosh
soni,
ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 79-223-23-40